



SHUKRULLONING “O‘G‘RINI QAROQCHI URDI” KOMEDIYASIDA FIRIBGAR ODAM TIMSOLI

Saida Kurbonova Bekchanovna,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Urganch davlat universiteti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207140>

Annotatsiya: Mazkur maqolada atoqli dramaturg Shukrulloning “O‘g‘rini qaroqchi urdi” komediyasida tasvirlangan Zufnuniy ismli firibgar odam obrazining badiiy talqini masalasi o‘rganildi. Tovlamachilik, soxtalik, laganbardorlik, ish bitkazishning tanish-bilishchilik, poraxo‘rlik yo‘lini kasb etgan firibgar odamning badiiy qiyofasi ham komik, ham satirik uslubda mahorat bilan yaratilgani tadqiq etildi.

Kalit so‘zlar: Shukrullo, komediya, satirik obraz, firibgarlik, tovlamachilik, davr muammosi, ijtimoiy illat, satirik uslub, komik vaziyat.

Ma’lumki, jahon va o‘zbek adabiyotida firibgar, tovlamachi, muttaham shaxslarning badiiy obrazi yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Jumladan, fransuz adabiyotida Gi de Mopassanning “Azizim” romanida Jorj Dyurua, polyak adabiyotida Tadeush Dolenga-Mostovichning “Muttahamning parvozi” romanida Nikodim Dizma, rus adabiyotida Gogolning “Revizor” komediyasida Xlestakov, “O‘lik jonlar” poemasi P.I.Chichikov, o‘zbek adabiyotida esa Uyg‘unning “Parvona” dramasi O‘tkuriy, Shukrulloning “O‘g‘rini qaroqchi urdi” komediyasida Zufnuniy, Shoyim Bo‘taevning “Utashan” romanida Berkinboy obrazlari muttaham, firibgar va tekinxo‘r odamlarning tipik obrazlari hisoblanadi.

O‘zbek dramaturgiyasida firibgar odam obrazi Uyg‘unning “Parvona” dramasi nihoyatda maromiga yetkazib tasvirlangan. Dramaning bosh qahramoni O‘tkuriy soddadil aspirant qiz Nazokatning baxtiga raxna soladi. O‘tkuriy shu qadar tovlamachi va ustamonki, atrofidagi barcha odamlar uning yolg‘onlariga darrov ishonishadi. Bundan tashqari, u nihoyatda gapga chechan, hammani og‘ziga qaratadi. Shirin so‘zlari bilan suhbatdoshini o‘ziga rom etadi. Bu jihatdan janob Chichikov (Gogol), Jorj Dyurua (Gi de Mopassan), O‘tkuriy (Uyg‘un), Zufnuniy (Shukrullo) obrazlari bir nuqtada kesishadi. Firibgar shaxslarning bir-biriga o‘xshab ketadigan xarakterli belgilari ham mavjud. Ular o‘zlarini atrofidagi odamlarga nihoyatda madaniyatli, aqlli, mehribon, xushmuomala qilib ko‘rsatishadi. So‘zamolligi bilan qarshisida turgan suhbatdoshini to‘riga ilintirib, so‘ngra o‘zlarining tekinxo‘rlik, poraxo‘rlik, qing‘ir yo‘l bilan boylik, mavqe’, martaba orttirish ortidagi yashirin

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



o‘ylarini amalga oshirishga urinishadi. Shu ma’noda, dunyo va o‘zbek adabiyotida yaratilgan firibgar odamlar obrazi bir maxrajga keltirilganda, ularning mushtarak jihatlari ko‘zga tashlanadi.

Shukrullo o‘zining “O‘g‘rini qaroqchi urdi” komediyasida jahon adabiyotidagi va Uyg‘unning “Parvona” dramasidagi O‘tkuriy kabi firibgar obrazlar badiiy tajribasidan unumli foydalandi. Komediyaning bosh qahramoni Zufnuniy obrazi o‘zbek dramaturgiyasida butunlay yangilik bo‘lmasa-da, yangilik sifatlaridan ham xoli emas edi. Zufnuniy – oddiy odam. Ammo uning qo‘li yetmagan joy qolmagan. Militsioner bilan ham, rahbarlar bilan ham, olimlar bilan ham, ashulachilar bilan ham, bog‘cha, maktab mutassadilari bilan ham til biriktirib, ish bitkazadi.

“O‘g‘rini qaroqchi urdi” komediyasi ikki parda, olti ko‘rinishdan tashkil topgan. Unda Nurbek (yozuvchi), Ma’suda (Nurbekning xotini), Zufnuniy (ishi notayin odam), Zamon (Zufnuniyning o‘g‘li), Marhamat (Zufnuniyning xotini), Egam (bazalardan birining boshlig‘i), Xayri (Egamning xotini), Shodmon garang (mahallaning xabarchisi), Arslon qori (tish doktori), Tojivoy (rayijrokom uy-joylar bo‘limining boshlig‘i, laqabi – soqqa), Jamila (Tojivoyning xotini), Hamdam (uy-joylar qurilishining boshlig‘i, laqabi – tunuka), Rixsi xola (Hamdamning onasi), Ibodxo‘ja (kandidat bo‘lmoqchi bo‘lgan sozanda), Boltavoy (militsiya xodimi) kabi personajlar ishtirok etadi.

Mazkur komediya O‘zbek davlat akademik drama teatrida sahnalashtirilgan. Shu bois “O‘g‘rini qaroqchi urdi” komediyasi xususida akademik N.Karimovning “Komediya fosh etadi” nomli taqriz maqolasi “O‘zbekiston san’ati va adabiyoti” gazetasining 1985 yil, 5 aprel sonida chop etilgan. Olim shunday yozadi: “...Shukrullo pesasi asosida sahnalashtirilgan “O‘g‘rini qaroqchi urdi” spektakli o‘z oldiga shunday vazifani – hozirgi kunda oz bo‘lsa-da, uchrab turg‘uvchi yulg‘uchlar, yulduzni benarvon uruvchi muttaham unsurlarning ildiziga bolta urish vazifasini qo‘ygan. Spektakl markazida Zufnuniy obrazi turadi. U ishlash joyi notayin bo‘lishiga qaramay, xushomadgo‘ylik, tilyog‘malik, muttahamlik orqasidan dabdabali hayot kechiradi. Bu tulkinning qo‘li yetmagan joy yo‘q. Lekin, shunisi borki, u tuxum qilmaydigan tovuqqa don bermaydi. O‘zi aytmoqchi, bir hovuch don bilan yigirmata tovuqdan tuxum olish yo‘llarini biladi”.

Komediyaning birinchi parda ilk ko‘rinishida Zufnuniyning hovlisi tasvirlanadi. Hovlida stol, stullar, hamma yerga telefonlar o‘rnatilgan. Go‘yoki bu uy oddiy odamning uyi emas, misoli ofis edi. Zufnuniyning xotini Marhamat erining

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



qilayotgan ishlaridan bezor bo‘lib, norozi ohangda o‘ziga o‘zi gapirib yurgan holda tasvirlanadi:

“Marhamat: Ha, Zufnuniyning uylari. Yo‘qlar. Gazimni to‘g‘irlab bermoqchi edilar. Bu gazxonamas (*Telefonni iladi. Yana jiringlaydi. Marhamat oladi.*). Nima? Bilet, olib bermoqchi edilar. Hoy, bu biletxonamas, aeroportga boring (*Telefonni iladi, telefon yana jiringlaydi. Marhamat oladi.*). Nima? Kasalxonadan o‘likni olib bermoqchi edilar. Hoy, o‘likxonaga boring! (*Trubkani qo‘yadi.*) Voy, tavba, voy tavba! (*Yana telefon jiringlaydi.*) O‘g‘lim militsiyada... Hoy bu militsiya emas! Zufnuniy o‘lgan (*Jahl bilan trubkani qo‘yadi. Yana telefon jiringlaydi. Marhamat olmaydi.*) Voy tavba, voy tavba! Bu erim nima balo? Bu faqat tiriklarning ishiga aralashadi, desam, o‘liklarning ham tilini bilarkan! Bu dajjolmi, azroyilmi, bir balo!”.

Xullas, Marhamatning iborasi bilan aytadigan bo‘lsak, komediya qahramoni Zufnuniy tiriklarning tashvishi qolib, o‘liklarning ham tilini topolgan odam. Zufnuniyning oila a‘zolari to‘xtovsiz telefon qo‘ng‘iroqlaridan, so‘roq-savollaridan bezor bo‘lishgan. Zufnuniyning jamiyatdagi notayin ishlari uchun butun oila notinch yashaydi. Zufnuniy militsiyaning ishiga ham, aeroportga ham, o‘likxonaga ham aralashib, odamlarga hojatbarorlik qiladi.

Zufnuniyning qarichi bilan o‘lchaydigan bo‘lsak, bu “dunyoda oshna-og‘aynigarchilik bor ekan, to‘g‘irlanmaydigan ish yo‘q”. Zufnuniy, yana o‘zi aytganidek, “birovning do‘ppisini birovga kiydirish” bilan shug‘ullanadi. Ana shu xizmati uchun noqonuniy yo‘l bilan daromad qiladi. Albatta, undan aldangan Arslon Qori, Egam, Tojivoy, Hamdam, Ibodxo‘jalar Zufnuniyning tovlamachi, firibgar, ig‘vorgarligini yaxshi bilishadi. Ammo boshlariga tashvish tushganida yana undan najot kutib, uni alqab, undan yordam kutishadi. Zufnuniyning atrofidagi do‘stlari Arslon qori, Egam, Tojivoy, Hamdam, Ibodxo‘jalar ham, aslida, yaxshi odamlar emas. Chunki ularning biri axloqsiz bo‘lsa, ikkinchisi davlat mulkini o‘marib, xavotirda yashaydi. Yana biri esa Zufnuniyni salkam avliyo qiyofasida ko‘rib, o‘zi havaskor qo‘shiqchi bo‘la turib, ustozining taklifi bilan dissertatsiya yozdirib, olim bo‘lishni orzu qilib qoladi.

Dramaturg jamiyatda yomon yaradek gazaklagan mana shunday tanish-bilishchilik, oshna-og‘aynigarchilik bilan ish bitkazishni odatga aylantirgan jamiyat va ijtimoiy illatlar ustidan kulib ham ularga tanqidiy qarab “O‘g‘rini qaroqchi urdi” komediyasini yaratadi.

Komediyaning badiiy yechimi kutilmaganda Zufnuniyning qamoqqa olinishi bilan yakunlanadi. Chunki uning yonidagi Boltavoy aslida militsiya xodimi bo‘lib,



uning barcha qilmishlarini kecha-kunduz o‘rganib, oxirda sahnaga qamoqqa olinish haqidagi order bilan kelib, Zufnuniyning qo‘llariga kishan solib, uni olib ketadi. Bu badiiy yechim beixtiyor Uyg‘unning “Parvona” komediyasidagi O‘tkuriyning yurist Adolat opaning u haqdagi barcha hujjatlarni to‘plab, o‘rganib, asar yakunida order bilan kelib, qamoqqa olinishi kabi yechim bilan bir xillik kasb etadi. Har ikki dramaturg O‘tkuriy, Zufnuniy kabi kishilarga bu jamiyatda o‘rin yo‘qligiga ramziy ishora qiladi. Chunki ular jamiyatni loyqalantiradilar. Ular garchand jamiyatda odamlarga yaxshilik qilayotgandek ko‘rinsalar-da, aslida ularning qilmishlari, yurgan yo‘llari qora. Bunday firibgar, tovlamachi, muttaham kishilarning qilmishlari, oxir-oqibat, fosh bo‘lib, ularning qonunan jazo olinishi tomoshabinga, kitobxonga eslatiladi. Mazkur komediyada jamiyatda qandaydir zufnuniylar, o‘tkuriylar emas, adolatlil qonun ustuvor bo‘lishi kerak, degan badiiy-falsafa ilgari surilgan.

Komediyadagi satirik fosh etuvchilik yuki asarning markaziy qahramoni Zufnuniyning yelkasiga ortilgan. Jumladan:

“Zufnuniy: Hazil! Meni kim deb o‘yladilaring? Bundan bir-ikki kun oldin senlar uchun tuban, makkor, firibgar bo‘lgan kishi, biring o‘g‘rilik qilib uyingdan ajraladigan bo‘lganlaringda, a? Endi senlarga kerak bo‘lib, akajon, eng pokiza, olijanob odam bo‘lib qoldimmi?.

Arslon qori: Akajon, men gunohkor. Men iflos! Qasam ichaman, akajon!

Zufnuniy: Akajon! Kimni aldamoqchi bo‘ldilaring! Biring redaksiya bormi, qayoqlarga ustimdan – bu firibgar, poraxo‘r, mening haqqimni yegan, mening palonchimga tegishgan, yana biring bo‘lsa, meni bunday aldagan, unday aldagan, deb dod solib, menga tuhmat qilib yur-da, meni bilmaydi deb o‘yladilaringmi? Meni aldab ishlaringni bitirmoqchi bo‘ldilaringmi?.”

Mana shu sahnada “O‘g‘rini qaroqchi urgan” holat namoyon bo‘ladi. Chunki Zufnuniy va uning hamtovoqlarining biri o‘g‘ri bo‘lsa, qolganlari qaroqchilardir. Shuning uchun dramaturg komediya nomini “O‘g‘rini qaroqchi urdi” deya komik pafos bilan badiiy ifodalagan.

Zufnuniylarning qarindoshlari hayotda doim bo‘lgan, ular mudom yashayveradilar. Ammo jamiyatda insonlar halollik va vijdonan hayot kechirsalar, zufnuniylarga o‘xshagan firibgarlarga o‘rin qolmaydi. Aslida, firibgarlarni ham ijtimoiy muhit shakllantiradi va jamiyatda nopoklik, noqonuniy ishlar avj oladi.

O‘zbekiston xalq shoiri va ajoyib dramaturg Shukrullo jahon va o‘zbek adabiyotida yaratilgan firibgar odam obrazining yangi badiiy talqinini yaratar ekan, tomoshabinga o‘tgan asrning 80-yillarida yashagan va odamlarni nopoklik sari

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



yetaklagan Zufnuniy qiyofasidagi tovlamachi kishilarning nopok ishlarini ko‘rsatib, uni satirik va komiklikda sahna asarida jonli aks ettirib berishga muvaffaq bo‘lgan. Muhimi, tovlamachilik, firibgarlik, munofiqlik albatta bir kuni fosh bo‘lishini Zufnuniy va uning do‘stlari hayoti misolida tomoshabinga yetkazib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov N. Komediya fosh etadi / Shukrullo. Tanlangan asarlar. VIII jild. Maqolalar, taqrizlar, xatlar, telegrammalar. – Toshkent: Sharq, 2014.
2. Shukrullo. Tanlangan asarlar. VI jild. Pesalar. – Toshkent: Sharq, 2014.
3. Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2024.

